Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anjonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	



DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI

Sanakulova B. R.

i.f.d., professor

Alfraganus University

Email: barnogul81@mail.ru

Jamolov M.M.

Yetakchi mutaxassis

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

Email: mirzabekjamalov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat qarzining iqtisodiy o'sish sur'atiga ta'siri tadqiq etilgan bo'lib, diqqat markazida qarz miqdorining iqtisodiy o'sishga nisbatan chegaraviy qiymatini (threshold) aniqlash masalasi turadi. Tadqiqot doirasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo 13 ta mamlakatning 25 yillik panel ma'lumotlari tahlil qilindi. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omil sifatida davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbati (foizda) va boshqa bir qator nazorat o'zgaruvchilari, jumladan tashqi savdo ochiqligi, asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, mehnat resurslari o'sish sur'ati va inflyatsiya hisobga olindi. Empirik tahlil uchun fiksirlangan va tasodifiy ta'sir modellari qo'llanilib, Hausman testi yordamida optimal panel modeli tanlandi, hamda Hansen 1999-yilda ishlab chiqqan usul asosida ikki rejimli threshold regressiya modeli qo'llandi. Natijalar qarz va o'sish o'rtasida nolineyar, invertirlangan U shaklidagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Davlat qarzi YAIMga nisbatan ma'lum darajagacha iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, ammo taxminan 35% atrofidagi kritik nuqtadan oshganda, qarzning qo'shimcha o'sishi iqtisodiy o'sish sur'atini pasaytirishga moyillik keltirib chiqaradi. Tahlil natijasida O'zbekiston misolida 2024–2030-yillarga mo'ljallangan prognozlar ham keltirilgan. Maqola yakunida davlat qarzini samarali boshqarish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha tegishli xulosalar hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, iqtisodiy o'sish, qarz yuki, threshold tahlil, panel ma'lumotlari, YAIM, qarz yuki.

Abstract. This article examines the impact of public debt on economic growth rates, focusing on the issue of determining the threshold value of debt in relation to economic growth. The study analysed 25 years of panel data from 13 member countries of the Commonwealth of Independent States (CIS). The ratio of public debt to GDP (in per cent) and a number of other control variables (in particular, openness to foreign trade, share of investment in fixed capital, labour force growth rates and inflation) were taken into account as factors influencing economic growth. For empirical analysis, fixed and random effects models, an optimal panel model using the Hausman test, and a two-regime threshold regression model based on Hansen's method (1999) were selected. The results showed a nonlinear (inverted U-shaped) relationship between debt and growth. Public debt stimulates economic growth up to a certain level in relation to GDP, but when it exceeds a critical point of around 35%, additional debt growth tends to slow down economic growth. As a result of the analysis, using Uzbekistan as an example, forecasts for 2024-2030 are also presented. The article concludes with relevant conclusions and recommendations for effective public debt management and ensuring sustainable economic growth.

Key words: public debt, economic growth, debt burden, threshold analysis, panel data, GDP, debt burden.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние государственного долга на темпы экономического роста, и в центре внимания находится вопрос определения порогового значения (threshold) суммы долга по отношению к экономическому росту. В рамках исследования были проанализированы 25-летние панельные данные 13 стран-участниц Содружества Независимых Государств (СНГ). В качестве фактора, влияющего на экономический рост, были учтены соотношение государственного долга к ВВП (в процентах) и ряд других контрольных переменных (в частности, открытость внешней торговли, доля инвестиций в основной капитал, темпы роста трудовых ресурсов и инфляция). Для эмпирического анализа были выбраны модели фиксированного и случайного воздействия, оптимальная панельная модель с использованием теста Хаусмана, а также двухрежимная пороговая регрессионная модель на основе метода Хансена (1999). Результаты показали наличие нелинейной (инвертированной U-формы) зависимости между долгом и ростом. Государственный долг стимулирует экономический рост до определенного уровня по отношению к ВВП, но когда он превышает критическую точку около 35%, дополнительный рост долга имеет тенденцию замедлять темпы экономического роста. В результате анализа, на примере Узбекистана, также представлены прогнозы на 2024-2030 годы. В заключении статьи даны соответствующие выводы и рекомендации по эффективному управлению государственным долгом и обеспечению устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: государственный долг, экономический рост, долговое бремя, пороговый анализ, панельные данные, ВВП, долговое бремя.



KIRISH

So'nggi yillarda jahon miqyosida davlat qarzi miqdorining o'sishi va uning makroiqtisodiy oqibatlari masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Davlat qarzi orqali jalb etilgan mablag'lar ko'pincha infratuzilmani yaxshilash va investitsion loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda qo'llaniladi. Biroq qarz miqdorining ortib borishi ma'lum bir chegaradan oshganda "qarz yuki" (debt overhang) fenomeni tufayli iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa Krugman tomonidan 1988-yilda ilgari surilgan nazariyada[1] asoslangan. Shu bois, davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikning xarakterini, xususan qarzning chegaraviy darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday chegaraviy qiymatdan oshgan holatda qarz iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin, bu esa uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik uchun xavf tug'diradi.

AQSH va Yevropa mamlakatlari misolida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar yuqori davlat qarzi iqtisodiy o'sishni pasaytirishi haqida dalillar keltirgan. Jumladan, Reinhart va Rogoff 2010-yildagi[2] tadqiqotida rivojlangan mamlakatlarda davlat qarzi YAIMga nisbatan 90%dan oshganda iqtisodiy o'sish sezilarli darajada sustlashishi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi misolida olib qaranganda, so'nggi yillarda tashqi va ichki qarz hajmi ortdi. 2023-yilda qabul qilingan "Davlat qarzi to'g'risida"gi qonunda[3] davlat qarzining maksimal darajasi YAIMning 60 foizidan oshmasligi belgilandi hamda qarz darajasi 50 foizga yetganda muayyan cheklov choralari ko'rilishi nazarda tutilgan. Biroq kelgusida qarz dinamikasi va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirdan ilmiy jihatdan baholash muhimdir. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda budjet defitsitini moliyalashtirish, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qarz olish ehtiyoji ortayotgan sharoitda, qarz barqarorligini saqlash va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatga e'tibor qaratish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat borasida iqtisodiy adabiyotlarda turli xulosalar mavjud. An'anaviy qarashlarga ko'ra, o'rtacha va me'yoriy darajadagi qarz jalb etilishi iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi mumkin, chunki qarz hisobiga moliyalashtirilgan sarmoyalar mamlakatning kapital zaxirasini ko'paytirib, ishlab chiqarishni kengaytiradi (Modigliani, 1961) [4]. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro qarzlar texnologiya transferi va infratuzilmaviy loyihalar orqali yuqori qaytarimli investitsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli, ma'lum bir miqdorgacha qarz olish iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosa keng tarqalgan (Pattillo va boshq., 2002) [5]. Qarz yukining ortishi kelgusidagi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshiradi, buning natijasida soliq yuki og'irlashadi yoki davlat xarajatlarining samarali tarmoqlarga yo'naltirilishi cheklanadi. Natijada, yuqori qarzdorlik xususiy investitsiyalarni siqib chiqarib, uzoq muddatli o'sish salohiyatini pasaytiradi (mishlar nazariyasiga ko'ra).

Empirik tadqiqotlarda ushbu nolineyar munosabat qator holatlarda tasdiqlangan. Reinhart va Rogoff (2010) o'z tadqiqotida davlat qarzining 90 foizdan yuqori darajasida iqtisodiy o'sishning sezilarli pasayishini aniqlagan bo'lsa, Pattillo, Poirson va Ricci (2002) tomonidan 93 ta rivojlanayotgan mamlakatlar tahlili asosida davlat tashqi qarzining YAIMga nisbatan taxminan 35–40 foizdan oshganda iqtisodiy o'sishga umumiy ta'siri manfiy tus olishi qayd etilgan. Ushbu tadqiqotda qarz va o'sish o'rtasidagi munosabat invertirlangan U-shaklga ega ekani ko'rsatilgan hamda o'sish uchun optimal qarz darajasi YAIMning 20 foiz atrofida ekanini bildirgan. Mazkur natijalarga ko'ra, 35–40 foiz atrofida qarz/YAIM darajasida iqtisodiy o'sishga netto ta'sir nolga tushadi va undan oshganda salbiylashadi.

Shuningdek, Lee va boshq. (2017) [6] tomonidan keng qamrovli davlatlar ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tadqiqotda qarzning chegaraviy ta'siri YAIMning 30 foiz atrofida namoyon bo'lishi statistik jihatdan tasdiqlangan. Ya'ni davlat qarzi 30 foizdan oshganda iqtisodiy o'sish median darajada bir foiz bandga past bo'lishi ilmiy asoslangan.

Boshqa tadqiqotlar esa qarz ta'sirining institutsional muhitga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Vinokurov va boshq. (2020) [7] 100 dan ortiq mamlakatlar namunasida institutsional rivojlanish darajasiga qarab qarz-o'sish chegarasini baholagan va institutlari zaif davlatlarda qarzning kritik darajasi YAIMning 35–40 foiz atrofida, institutlari mustahkam davlatlarda esa 50–60 foiz atrofida shakllanishini ko'rsatgan. Bu esa kuchli institutlar va samarali boshqaruvga ega mamlakatlar qarz yukini yuqoriroq darajada bo'lsa ham boshqara olishini, institutsional zaiflik mavjud davlatlarda esa hatto nisbatan past qarz darajasi iqtisodiy o'sishga bosim o'tkazishini anglatadi.

Shuningdek, qarz va o'sish bog'liqligida sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash masalasi ham ilmiy muhokamalarga sabab bo'lgan. Jacobs va boshq. (2020) [8] Yevropa va OESR mamlakatlari ma'lumotlari



asosida panel VAR usulida o'tkazgan tadqiqotida davlat qarzining iqtisodiy o'sishga bevosita salbiy yoki ijobiy ta'sirini aniqlamagan, aksincha, iqtisodiy o'sish sustlashganda davlat qarzi oshishi, ya'ni qarz oqibat, o'sish esa sabab roliga namoyon bo'lishi kuzatilganini ko'rsatgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash maqsadida vaqtli qatorlar uchun autoregressiya tarqoqligini laglash (ARDL) modellari, panel ma'lumotlar uchun esa doimiy (FE) va tasodifiy ta'sir (RE) modellari qo'llanildi. Panel modelining optimal varianti Hausman testi orqali aniqlanib, doimiy va tasodifiy ta'sirlar o'rtasidagi tanlov asosida model belgilandi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish va davlat qarzi o'rtasidagi bog'liqlikdan kelib chiqib davlat qarzining YAIMga nisbatidagi ulushining qaysi miqdorda iqtisodiy o'sish sur'atining oshishidan pasayish bosqichiga o'tishini, ya'ni davlat qarzining YAIMga nisbatidagi kritik nuqtani (threshold) aniqlash amalga oshirildi. Bunda Hansening (1999) threshold regressiya modeli qo'llanildi. MDH mamlakatlarining 13 tasi tanlab olindi; Turkmaniston va Latviya mamlakatlari modelda foydalaniladigan ko'rsatkichlarning yetarli emasligi sababli tahlilga kiritilmadi.

Empirik tahlil quyidagi modelga asoslanildi:

$$GDPgr_{it} = \alpha + \beta PD_{it} + \gamma Z_{it} + \varepsilon \quad (1)$$

Bu yerda

$GDPgr$ — i-davlatda t-vaqtdagi real yalpi ichki mahsulotning (real YAIM) o'sish sur'ati;

PD — i -davlat qarzining YAIMga nisbati (%);

$Z_i = \{z_1, z_2, z_3, z_4\}$ — i mamlakat uchun nazorat o'zgaruvchilari vektori:

z_1 - iqtisodiyotning ochiqqligi;

z_2 - investitsiya normasi;

z_3 - mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining o'sishi;

z_4 - inflyatsiya darajasi;

α — doimiy o'zgaruvchi;

ε — xatolik (rezidual) had.

Davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri chiziqli bo'lmasligi ehtimoli mavjud. Shuning uchun model (1) threshold regressiya shakliga (bog'liqlikning ma'lum bir chegaraviy qiymatdan keyin yoki oldin o'zgarishi) keltirildi. Bu yondashuv orqali davlat qarzining YAIM nisbatining o'zgarishi kritik (chegaraviy) qiymatga yetgach, iqtisodiy o'sishga ta'sir yo'nalishi aniqlash mumkin.

Threshold regressiya modeli ikki rejimli shaklda quyidagicha ifodalandi:

$$GDPgr_{it} = \alpha_1 + \beta_1 PD (q_0 < \gamma) + \beta_2 PD (q_0 \geq \gamma) + z_{it} + \varepsilon_{it} \quad (2)$$

Bu yerda:

q — davlat qarzining iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri boshlanadigan threshold (kritik) qiymati;

β_1 — davlat qarzining iqtisodiy o'sishga musbat ta'sir qiluvchi koeffitsiyenti;

β_2 — davlat qarzining iqtisodiy o'sish sur'atini kamaytiruvchi ta'siri yuzaga keladigan rejimdagi koeffitsiyent.

Kritik (Threshold) qiymati q Hansen (1999) tomonidan ishlab chiqilgan metod asosida aniqlandi, bunda turli ehtimoliy q qiymatlari bo'yicha SSR (rezidual kvadratlar yig'indisi) minimallashtirildi. Ma'lumki, tanlangan q da model minimal SSRga ega bo'lsa, u optimal threshold sifatida qabul qilinadi. Threshold qiymatning statistik ahamiyati bootstrapping usuli yordamida test qilindi (takrorlashlar soni 1,000).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlilda mamlakatlarning 25 yillik panel ma'lumotlari qamrab olindi. Shu orqali davlat qarzi tarkibining iqtisodiy o'sishga turlicha ta'siri empirik baholandi. Modelning ishonchlilikini aniqlashda bir ildiz (unit root) Levin-Lin-Chu (LLC) [9] testi, uzoq muddatli bog'liqlik mavjudligini baholashda esa Pedroni kointegratsiya testi qo'llanildi. Doimiy va tasodifiy ta'sirlar o'rtasidagi tanlovni belgilash uchun Hausman testi, threshold rejimlarining aniqligini baholashda Hansening "likelihood-ratio" testi qo'llandi. (1) va (2) tengliklar asosida bog'liqlik ko'rsatkichlari hamda prognoz natijalarining regression tahlili Stata 17 dasturi yordamida amalga oshirildi.

Panel ma'lumotlari asosida bajarilgan statsionarlikni baholash — ya'ni Levin-Lin-Chu (LLC) (unit root) testiga ko'ra — YAIMning o'sish sur'ati statsionar ekanini ko'rsatdi. Uzoq muddatda uning o'rtacha qiymati va dispersiyasi o'zgarmaydi. Demak, uni regressiya tenglamasida foydalanish mumkin ($p\text{-value}=0.0000<0.05$). Davlat qarzi miqdorining o'zgarishi esa statsionar emasligi aniqlangan ($p\text{-value}=0.0647>0.05$). Shunday natija asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida ham kuzatildi ($p\text{-value}=0.1432>0.05$) (1-jadval).



1-jadval. Levin-Lin-Chu (LLC) ning statsionarlik testi natijalari (N=13, T=25, kuzatuvlar soni 324, ADF (lag 1), LR (lag 9))

Omilar, %da	Unadjusted t	Adjusted t	P	Statsionarlik holati
$\Delta Y/Y$	-9.7309	-4.9540	0.0000	Stasionar
PD	-6.5404	-1.5162	0.0647	Stasionar emas
ED	-6.4581	-1.2323	0.1089	Stasionar emas
EF	-7.0460	-3.1766	0.0007	Stasionar
Invest	-5.0427	-3.4158	0.0076	Stasionar
LFP	-4.0427	-2.4158	0.0078	Stasionar
INI	-14.2896	-8.2143	0.0000	Stasionar

Nostatsionar o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik Pedroning kointegratsiya testi asosida baholandi. Unga ko'ra, panel ma'lumotlari asosida iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli kointegratsiya mavjud (t-stat = -1.637, rho-stat = -0.6689, ADF-stat (panel) = -2.98, ADF-stat (group) = -4.43). Pedroning PDOLS modeli orqali kointegratsiya tenglamasining koeffitsiyenti davlat qarzi bo'yicha ($\beta = 0.6549$, t-stat = 28.39) uzoq muddatda iqtisodiy o'sishga ta'sir mavjudligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Pedroni kointegratsiya va PDOLS testi natijalari

Panel ma'lumotlari			
Time-demaned	Panel tarkibi	Kuzatuvlar soni	O'rtacha kuzatuvlar soni
Kointegratsiya testi uchun	13	324	25
PDOLS uchun	13	259	20
Pedroni kointegratsiya testi natijalari (Panel/ Guruh)		PDOLS (Guruh bo'yicha o'rtacha)	
V	.5481/.03941	Invest_td (β)	-1.416
rho	-.6689/.03941	Invest_td (t-stat)	-2.541
T	-1.637/-1.612	ED~d (β)	.6549
adf	-.298/-.4436	ED~d (t-stat)	28.39

3-jadvalda panel ma'lumotlaridagi mustaqil o'zgaruvchilarning qisqa va uzoq muddatli ta'sirlari xatoliklarni tekislash modeli (ECM) asosida baholandi. Unga ko'ra, tashqi qarzning qisqa muddatda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri statistik ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan ($\beta = -0.133$, p = 0.002) (3-jadval).

3-jadval. Mustaqil o'zgaruvchilarining qisqa va uzoq muddatli ta'sir xatoliklarini tekislash modeli (ECM) natijalari

Qisqa muddatli ta'sir (short run)			
Mustaqil o'zgaruvchi va omillar	B	p> z	[95% Conf. Interval]
Xatolikni tekislash (ECM)	0.047	0.618	-.1377183 .2316682
Davlat qarzi (D1)	-.1083599	0.278	-.3043015 .0875816
Asosiy kapitalga investitsiyalar (D1)	.4470953	0.178	-.2033488 1.097539
Tashqi qarz (D1)	.4470953	0.278	-.3043015 .0875816
O'zgarmas kattalik	4.274161	0.175	-1.900973 10.4493
Uzoq muddatli ta'sir (long run)			
Asosiy kapitalga investitsiyalar	-1.005322	0.589	-4.648449 2.637806
Tashqi qarz	.2422905	0.442	-.3754264 .8600074



Hausman testi natijasiga ko'ra ($p\text{-value}=0.0000$) fiksirlangan (fixed effect) modeli tanlandi (4-jadval).


4-jadval. Hausman testi natijalari

GDP	B	Standart xatolik	T	P> t	[95% Conf. Interval
FE					
PD	-.0343536	.0178232	-1.93	0.055	-.0694247 .0007174
Invest	.1658027	.0505777	3.28	0.001	.0662798 .2653256
ITrade	.1308194	.0190679	6.86	0.000	.0932991 .1683397
Inf	-.0324948	.0249201	-1.30	0.193	-.0815307 .0165411
Cons	-8.249254	2.154168	-3.83	0.000	-12.48806 -4.010451
Num.Obs=324, N=13, R ² (within)=0.1627, R ² (overall)=0.0203, rho=0.4695, F(4,307)=14.91, p=0.0000, corr(u_i, X)=-0.7733					
RE					
PD	-.0245031	.0156837	-1.56	0.118	-.0552425 .0062364
I	.1468271	.0507427	2.89	0.004	.0473732 .2462809
ITrade	.0594837	.0145999	4.07	0.000	.0308684 .088099
Inf	-.0101563	.0248945	-0.41	0.683	-.0589486 .0386361
Cons	-2.704166	1.87102	-1.45	0.148	-6.371297 .9629656
Num.Obs=324, N=13, R ² (within)=0.1448, R ² (overall)=0.0314, rho=0.1036, Wald chi2=29.40, p=0.0000, corr(u_i, X)=0					
Hausman testi	(b) FE modeli	(B) RE modeli	(b-B) farqi	sqrt(diag(V_b-V_B)) Standart xatolik	
PD	-.0343536	-.0245031	-.0098505	.0084669	
Invest	.1658027	.1468271	.0189756		
ITrade	.1308194	.0594837	.0713357	.012264	
Inf	-.0324948	-.0101563	-.0223386	.00113	
chi2(4) = (b-B)'[(V_b-V_B)^(-1)](b-B)= 26.37 Prob>chi2 = 0.0000					

Hansen (1999) usuli yordamida aniqlangan kritik qiymatga ko'ra, birinchi segmentda davlat qarzi <35 % bo'lganda tashqi savdo aylanmasining 1 % ga ortishi YAIMni 0.05 % ga ($p<0.05$), asosiy kapitalga investitsiya hajmining 1 % ga ortishi YAIMni 0.30 % ga ($p<0.01$) oshiradi. Iste'mol narxlar indeksi va iqtisodiy faol aholi sonining o'sishida esa YAIM mos ravishda 0.12 % va 0.10 % ga o'zgaradi. Ikkinchi segmentda davlat qarzi ≥ 35 % bo'lganda ushbu o'zgarishlar mos ravishda 0.10 %, 0.15 %, 0.05 % va 0.20 % ga teng bo'ladi. Panel guruhidagi umumiy to'plamda esa yalpi ishlab chiqarish hajmi 0.5 % ga kamayadi. Yuqori davlat qarzining ortishi kuzatilganda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmining YAIMga ta'siri qisqaradi. Tashqi savdo aylanmasi va iqtisodiy faollik darajasi esa ortishi mumkin.


Kritik qiymatning (threshold) ishonchliligi bootstrap testi bilan baholandi. Unga ko'ra, o'rtacha R-kvadratik kattalik 0.235 (model ma'lumotlarning 23.5 % atrofni tushuntiradi), standart xatolik 0.015, 95 % ishonch oraliq [0.205, 0.265] ni ifodalaydi va model parametrlari barqaror hisoblanadi. Tahlillarga ko'ra, davlat qarzining ma'lum miqdorigacha (threshold) iqtisodiy o'sishga rag'batlantiruvchi ta'siri yuzaga keladi, undan oshgach esa iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi ortishi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha prognoz amalga oshirildi. 2024–2030-yillarda davlat qarzi 31.2 foizdan 15.7 foizgacha kamayishi prognoz qilindi, bu moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi va qarzga bog'liqlikning qisqarishini anglatadi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish sur'ati 6.5 foizdan 8.6 foizgacha oshib, iqtisodiy faollikning ortishi hamda investitsion muhitning yaxshilanishini aks ettiradi. Barqaror iqtisodiy o'sish qarz normasi chegarasining pasayishiga xizmat qilgan holda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Umuman olganda, ushbu prognozlar moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishga yo'nalishni shakllantiradi. Biroq turli tashqi omillar — tarif tizimidagi o'zgarishlar, xorijiy valyuta kurslarining keskin tebranishi, qisqa muddatli tashqi qarz hajmining ortishi va boshqa omillar ta'sirida ko'rsatkichlar o'zgarishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Davlat qarzining YAIMdagi ulushi va YAIMning o'sish sur'atlarining yillar bo'yicha o'zgarishi va prognozi, %da

Prognoz ko'rsatkichlarining choraklar bo'yicha tahlili va prognoz natijalaridagi og'ish qisqa davr oralig'idagi korrelyatsion bog'liqlik bilan izohlanadi. 2025–2030-yillar oralig'ida davlat qarzining choraklar bo'yicha 33.5 foizdan 38.3 foizga doimiy ortib borishi mamlakatda fiskal bosim kuchayishini ko'rsatadi, ayniqsa budget defitsiti sharoitida. Qarzдорlikning ortishi davom etganda iqtisodiy o'sishning pasayish fazasiga o'tishi (2030-yilning 1-choragi) potensial fiskal beqarorlik yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa qarz dinamikasini barqarorlashtirishga qaratilgan siyosatning ahamiyatini yanada oshirish zarurligini ifodalaydi (2-rasm).



2-rasm. Davlat qarzining YAIMdagi ulushi va YAIMning o'sish sur'atlarining choraklar bo'yicha o'zgarishi va prognozi, %da



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotga ko'ra, davlat qarzini YAIMga nisbatan 35 foizdan oshirmaslik va nisbatan past — 20–30 foiz atrofida ushlab turish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlashtirildi. Bunday ko'rsatkich davlatning qarz yukini ko'tara olish qobiliyatini saqlab qoladi va iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ehtimolini kamaytiradi. Shu bilan bir qatorda, qarzning iqtisodiy o'sishga ijobiy yoki salbiy ta'siri ko'p jihatdan qarz hisobiga jalb etilgan resurslarning qanday sarflanishiga bog'liq. Agar qarz hisobiga olingan mablag'lar yuqori foyda keltiruvchi investitsiya loyihalariga, infratuzilmani yaxshilashga yoki inson kapitaliga yo'naltirilsa, ular iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi va qarzga xizmat qilish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Bu holatda qarz "o'zi uchun to'laydi", deyish mumkin. Aksincha, qarz mablag'lari samarasiz loyihalarga sarflansa yoki operatsion xarajatlarni qoplashga ishlatilsa, ular kelgusida qo'shimcha daromad yaratmaydi va iqtisodiyotning qarz yuki ostida zaiflashishiga olib keladi.

Yuqori qarz yuki iqtisodiyotni tashqi shoklarga nisbatan sezuvchan qiladi. Masalan, valyuta kursining devalvatsiyasi tashqi qarzning og'irligini oshiradi, foiz stavkalarining yuqorilashi esa qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini ko'paytiradi. Shu sababli davlat qarzini boshqarishda valyuta risklarini pasaytirish (qarzning ma'lum ulushini milliy valyutada jalb etish), foiz riskini boshqarish (o'zgaruvchan stavkadagi qarzlarning ulushini cheklash) va muddatlar bo'yicha diversifikatsiya (qarzlarning muddati bo'yicha tarkibini turlicha shakllantirish) muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv qarz yukining iqtisodiyotga bosimini kamaytiradi va tashqi shoklarni yumshatishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan davlat qarzi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi chegara (threshold) mavjudligi g'oyasini MDH davlatlari misolida tasdiqladi. O'zbekiston uchun bunday chegara YAIMga nisbatan taxminan 30–35 foiz atrofida ekanini ko'rsatuvchi natijalar olindi. Bu shuni anglatadiki, agar davlat qarzi to'g'ri boshqarilib, ushbu me'yorlarda saqlansa, qarz orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mumkin; aksincha, haddan tashqari qarzga qaramlik iqtisodiy barqarorlikka tahdid solishi ehtimolini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chandra, Ramesh. (2022). Paul Krugman, New Trade Theory and New Economic Geography.
2. Reinhart, Carmen M., and Kenneth S. Rogoff. 2010. "Growth in a Time of Debt." *American Economic Review* 100 (2): 573–78.
3. Ўзбекистон Республикасининг 29 апрель 2023 йилдаги 836-сон Давлат қарзи тўғрисида Қонуни
4. Miller, M.H. and Modigliani, F. (1961) Dividend Policy, Growth, and the Valuation of Shares. *The Journal of Business*, 34, 411-433.
5. Pattillo, Catherine & Poirson, Hélène & Ricci, Luca. (2002). External Debt and Growth. *Review of Economics and Institutions*. 2. 10.5202/rei.v2i3.45.
6. Lee, S. et al (2017), 'Testing for a debt-threshold effect on output growth'38(4).
7. Vinokurov, E., Lavrova, N., & Petrenko, V. (2020). Optimal debt and the quality of institutions (EFSD Working Paper No. 20/4). European Fund for Sustainable Development.
8. Jacobs, J., Ogawa, K., Sterken, E., & Tokutsu, I. (2020). Public debt, economic growth and the real interest rate: A panel VAR approach to EU and OECD countries. *Applied Economics*, 52(12), 1377–1394.
9. Levin, A., Lin, C.F. and Chu, C.S.J. (2002) Unit Root Tests in Panel Data: Asymptotic and Finite-Sample Properties. *Journal of econometrics*, 108, 1-24.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>